



"VIKTORIYA DAVRI ANGLIYASIDA IJTIMOY MUAMMOLAR VA  
ADABIYOT: TANQIDIY REALIZMNING JAMIYATDAGI  
ADOLATSIZLIKLARGA TA'SIRI"

**Sharipova Nargiza Sheramat qizi**

Osiyo xalqaro universiteti magistr talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15423784>

**Annotation:** Ushbu maqolada Viktoriya davrida Britaniyada sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar va ularning adabiyotga ta'siri o'rganib chiqildi. Britaniyadagi ijtimoiy jarayonlarning qirolicha Viktoriya davridagi yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodiga tanqidiy realizmning ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek hozirgi O'zbekistondagi ijtimoiy hayotidagi muammolar va Viktoriya davridagi ijtimoiy qiyinchiliklar taqqoslandi va kerakli xulosalar berildi. Maqolada adabiy kayfiyat jamiyat hayotiga nechog'lik ta'sir ko'rsatishi atroflicha yoritib o'tildi.

В данной статье рассматриваются социально-политические события, произошедшие в Британии в викторианский период, и их влияние на литературу. Проанализировано влияние социальных процессов в Британии на жизнь и творчество писателей и поэтов в период правления королевы Виктории. Также были сопоставлены проблемы в социальной жизни современного Узбекистана и трудности викторианской эпохи и сделаны необходимые выводы. В статье подробно освещается влияние литературного настроения на жизнь общества. This article examines the socio-political events that took place in Britain during the Victorian era and their influence on literature. The influence of social processes in Britain on the life and work of writers and poets during the reign of Queen Victoria was analyzed. The problems in the social life of modern Uzbekistan and the difficulties of the Victorian era were also compared, and the necessary conclusions were drawn. The article thoroughly examined the impact of literary mood on social life.

**Keywords:** Viktoriya davri, Tanqidiy realizm, Charlz Dikkens, Tomas Hardi, Jorj Eliot, Sharlotta Bronte, Elizabet Gaskel, Sanoat inqilobi, Gender tenglik Viktoriya sifati Angliya qirolichasi Viktoriya hukmronligi davrida biror bir narsani tasvirlash uchun ishlatiladi. Shuningdek, qirolicha sifatida Viktoriya taxtda 63 yildan ortiq vaqt davomida, 1837 yildan 1901 yilgacha bo'lgan. Shuning uchun ham bu atama XIX asrdagi jarayonlarni tasvirlash uchun Viktoriya davri tushunchasi ishlatilgan. Viktoriya adabiyoti, Viktoriya me'morchiligi, Viktoriya modasi kabi atamalarning paydo bo'lishi shular jumlasidandir. "Viktoriya davri qanday davr edi?", degan savollarga tarixchi olimlar ikki xil qarashni bildiradilar.





➤ Birinchidan, Viktoriya davri — Britaniya tarixidagi eng muhim va o'zgarishlarga boy davr bo'lib, ushbu davrda Britaniya dunyoning eng kuchli imperiyasiga aylangan, sanoat inqilobi, ilm-fan, madaniyat va siyosatda sezilarli o'zgarishlar yuz bergan.

➤ Ikkinchidan, Viktoriya davri— Britaniya tarixidagi eng ijtimoiy og'ir davr bo'lib, ayollar mehantining qadrsizligi, bolalar mehnati, ishchilar sinfining norozilik kayfiyati va jamiyatda boylar va kambag'allar orasidagi tafovutning kattaligi bilan ajralib turgan.

Bu 2 xil qarash albatta adabiyotda ham o'z ifodasini topmay qo'ymadi. Adabiyotda ilgari XVI asrda mashhur bo'lgan sonetlardan iborat bo'lgan romantizm falsafasi XIX asr Viktoriya adabiyotida sig'ishmay qoldi.<sup>1</sup> 14-16 soat ishda ishlaydigan asosiy ishchilar qatlami haqiqatdan yiroq bo'lgan romantik sonetlarni qabul qilmay qo'ydi. Endi yangi proletariat qatlam, tadbirkor, fermerlar uchun real voqealikni o'zida aks etgan **tanqidiy realizm** janri paydo bo'ldi.

**Tanqidiy realizm** - 19-asrning 20—30 yillarida jahon adabiyoti va san'atida shakllangan badiiy metod, realizmning bir ko'rinishi. Klassitsizm adabiyoti vakillarining o'z davrini o'tagan va eskirgan tasvir usullariga qarshi, o'tgan asrlardagi ilg'or adabiyotlarning eng yaxshi an'alarini davom ettirish va yangilash maqsadida maydonga kelgan. Hayot hodisalarini badiiy mujassamlashtirishda bu hodisalarning ijtimoiy-tarixiy ildizlarini ochish tanqidiy realizmning asosiy maqsadidir.<sup>2</sup>

Tanqidiy realizm yozuvchining o'z asarlarida jamiyatdagi muammolarni, ijtimoiy adolatsizliklarni va insonlarning shaxsiy qiyinchiliklarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Viktoriya davrining adabiyotida tanqidiy realizmning rivojlanishida katta rol o'ynagan bir nechta yozuvchilar mavjud bo'lib ular orasida Charlz Dikens, Tomas Hardi, Jorj Eliot, Sharlotta Bronte, Elizabet Gaskellarni misol keltirishimiz mumkin.

Dikens o'z romanlarida jamiyatning past qatlamlarini, ayniqsa bolalar va ishchilarni tasvirlash orqali, ularning azoblarini, mehnat sharoitlarini va taqdirini yoritdi. "Oliver Twist" asarida bolalar mehnati va yo'qsillikning ijtimoiy sabablari tanqid qilingan bo'lsa, "Great Expectations" da esa jamiyatning yuqori sinfida mavjud bo'lgan muammolar va ikkiyuzlamachiliklar ochib beriladi.

Tomas Hardining asarlarida esa qishloq aholisi hayoti, sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil qilinadi. Qishloq va shahar aholisining o'rtasidagi





yuzaga kelgan tafovutlar, jamiyatdagi noroziliklarni zo'r mahorat bilan

t

a  
s Jorj Eliot a o'z davrida ayol yozuvchi sifatida chinakam jasorat ko'rsatdi. Uning romanlari - "Middlemarch" va "Silas Marner" - jamiyatdagi axloqiy qarama-qarshiliklar, shaxsiy tanlov va ijtimoiy bosimni tasvirlaydi. Uning asarlarida ayniqsa ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning erkinlikka intilishi asosiy mavzulardan biri bo'lgan. Uning yozish uslubi chuqur psixologik tahlilga boy, lekin hayotiy va real voqealarga asoslanadi.

y Elizabeth Gaskell esa tanqidiy realizmni ishchilar sinfini yoritish orqali boyitgan yozuvchilardan biridir. "Mary Barton" va "North and South" asarlarida Sharlotta Bronteni davrida ishchilar va fabrikalar hayotidagi ziddiyatlar, sinf ajralishiga nisbatan ijtimoiy tengsizliklarni va azoblati bilan tasvirlaydi. Gaskell, o'sha davrda kamdan-kam yozuvchilar qalamiga olgan mavzular - ishchilar hayoti, ayollar mehnati, urbanizatsiyaning insonlarga ta'siri - haqida chuqur fikr yuritgan.

Sharlotta Bronteni ko'pincha romantik yozuvchi sifatida eslasakda, uning asarlarida tanqidiy realizmning muhim jihatlari yaqqol ko'rinadi. Ayniqsa, "Jeyn Eyr" (1847) romani orqali u ayollarning ijtimoiy o'rni, mustaqillik va tenglik istagi, axloqiy iztiroblari va ichki dunyosini chuqur tahlil qiladi. Jane Eyre obrazida Sharlotta Bronte ayolning erkin fikrlashga, shaxsiy qadr-qimmatini himoya qilishga va jamiyat bosimiga qarshi turishga bo'lgan intilishini aks ettiradi.

Bronte shuningdek, sevgi va ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi murakkab ziddiyatlarni ham ko'rsatadi. Uning yozish uslubi hayotiy, ammo psixologik chuqurligi bilan ham ajralib turadi. Bu esa uni Viktoriya davridagi tanqidiy realizm yo'nalishiga aloqador yozuvchi sifatida tan olishga asos beradi.

Hozir O'zbekiston agrar davlatdan industrial davlatga o'tib sanoat inqilobini amalga oshirdi. Bu jarayon Buyuk Britaniyada XIX asrning 40-yillarida sodir bo'lgan. Bu ikki davr bir-biridan keskin farq qilishi mumkin, ammo hozirgi davr ijtimoiy hayot o'sha davr ingliz ijtimoiy hayoti bilan ma'lum o'xshashliklarga ega. Masalan: Viktoriya davrida sanoat inqilobi natijasida jamiyatda yangi ijtimoiy qatlamlar - sanoatchilar, ishchilar, o'rta sinf shakllandi. Biroq bu davrda kambag'allar va boylar o'rtasidagi tafovut ancha keskinlashdi. Ishchi sinfnin huquqlari ko'pincha poymol etilar, ularning mehnati ekspluatatsiya qilinardi. Zamonaviy O'zbekistonda ham ijtimoiy tabaqalanish





muammosi mavjud: ayrim toifadagi fuqarolarning iqtisodiy imkoniyatlari keskin oshib borayotgan bir paytda, boshqa qatlamlar hayotiy zaruriy ehtiyojlarni qondirishda qiynalmoqda. Aholining muayyan qismi migratsiyaga majbur bo'layotgani, ayniqsa, yoshlarning xorijga chiqib ishlash istagi buni tasdiqlaydi. Yoki yana bir misolni oladigan bo'lsak. Viktoriya davrida ayollar asosan an'anaviy "uy bekasi" roliga yopishib qolgan bo'lsa-da, bu stereotipga qarshi chiqqan adabiy obrazlar shakllana boshlagan. Sharlotta Bronte, Jorj Eliot kabi yozuvchilar ayollar ichki dunyosi, mustaqilligi va o'zini anglash masalalarini o'rtaga qo'yidilar. O'zbekistonda esa gender tengligi masalasi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlansa-da<sup>4</sup>, ijtimoiy ongda hali to'liq singib ketmagan. Ayol obrazlari nafaqat adabiyotda balki hayotda ham ko'proq an'anaviy kontekstda – fidoyi ona, sadoqatli rafiqa tarzida tasvirlanadi.

Demak bundan shunday xulosaga kelish mumkin-ki, Viktoriya davridagi ijtimoiy muammolarning ayrimlari O'zbekistonda mavjud va uni yechimini toppish uchun biz aynan o'sha davr adabiyoti, tarixi va o'sha davr voqealiklarini o'rganib o'zimizga kerakli xulosalar olgan holda jamiyatimizga moslab o'zimizga qabul qilishimiz kerak.

Viktoriya davri adabiyoti — bu nafaqat badiiy mahoratning yuksak namunasi, balki o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolariga befarq bo'lmagan adabiy harakatdir. Ushbu davrda Angliya jadal taraqqiyot sari yo'l olgan bo'lsa-da, bu taraqqiyotning soyasida ko'plab ijtimoiy ziddiyatlar, tengsizlik va inqirozlar yashiringan edi. Ana shu ziddiyatlar adabiyotda o'z aksini topdi. Yozuvchilar esa jamiyatda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy o'zgarishlarga munosabat bildirar ekan, ularni tanqidiy ruhda, realistik tarzda yoritdilar. Bu islohotlar o'tkazilib xalqning ijtimoiy ahvoli yaxshilanishiga ularning manfaatlarining hisobga olinishiga va hukumat tomonidan ularga yon bosilishiga olib keldi. Shu sababli, Viktoriya davri adabiyotini faqat o'tmish manzarasi deb emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarning turtkisi, inson ongini uyg'otuvchi kuchli madaniy vosita sifatida qadrlash kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rozikovna, Kurbonova Nodira, and Mustafoeva Makhfuza. "ORIGIN AND FEATURES OF THE SONNET GENRE." Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities 11 (2023): 141-147.
2. Современные проблемы реализма и модернизм [Сборник статей / Ред. коллегия: ... А.С. Мясников (отв. ред.) и др.]; [Акад. наук СССР. Ин-т





мировой литературы им. А.М. Горького]. — Москва : Наука, 1965. — 615 с.; 22.

3. AL-Tijani Hassan Ahmed yagoob. “Aspects of New Realism in Thomas Hardy's Tess of the D'Urbervilles (1891)” International Journal of Contemporary Applied Researches Vol. 6, No. 2, February 2019 (ISSN: 2308-1365) [www.ijcar.net](http://www.ijcar.net)

4. Narmin Mammadova “The Brontë Sisters and the Critical Realism of English Literature” Acta Globalis Humanitatis et Linguarum Vol. 1 No. 2 (2024): Thematic Issue in Linguistic Studies <https://doi.org/10.69760/aghel.01024067>

5. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-son

